

# INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

## “TEXNOLOGIYA DARSALARIDA O’QUVCHILARGA KIYIMLARNI TIKISH TEXNOLOGIYASINI O’RGATISH”

M.X.Ikramova

Abdusattorova Shoxizarxon

QDPI Texnologik ta’lim yo’nalishi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali Texnologiya darslarida o’quvchilarga kiyimlar tikish haqida kengroq ma’lumotlar berib o’tilgan. Kiyimning kelib chiqishi va bugungi kundagi turlari haqida yoritilgan. O’zbek millatining boshqa millatlardan farqi – milliyligidadir. Darxaqiqat, bizning milliy hunarmandchilik namunalarimizdan bo’lmish atlas va adres matosidan tayyorlangan kiyimlar ko’plab millat xalqlarida qiziqish uyg’otgan desak mubolag’a bo’lmaydi.

**Kalit so’zlar:** Kiyim, mato, milliy, hunarmandchilik, madaniyat, namuna, san’at, atlas, adres, texnologiya, millat.

Mamlakatimizda yoshlarni kasbga yo’llash malakali mutaxassis etib tayyorlash ishlari maktablardanoq boshlanadi. Ana shu ishlarni bajarishda Texnologiya ta’limi o’qituvchilariga ham ko’p narsa bog’liq bo’ladi. Bugungi kunda Texnologiya ta’limi darslarida maktab o’quvchilariga kiyimlar tikishni o’rgatish va kiyimlar to’g’risida asosiy tushunchalar berib kelinmoqda. Ana shu maqsadda Texnologiya ta’limi o’qituvchilarini tayyorlash bo’yicha o’quv rejaga muvofiq “Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” fani rejaga kiritilgan. “Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” fanida asosan kiyimlar tikish va kiyimlarni konstruksiyalash haqida hamda zamonaviy hunar turlari to’g’risida ma’lumotlar berib hamda o’rgatib kelinmoqda.

Kiyim insonning ilk rivojlanish davridan boshlab doimo inson bilan birga rivojlanib keldi. Kiyimning dastlabki ko’rinishlari Ibtidoiy davr odamlarining qabila bo’lib yashagan vaqtiga to’g’ri kelgan. Bu davrda daraxt barglari, poxollar, hayvon terilarini tanaga beldan bog’lab yurishgan. Kiyim insonning ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati va ongingin rivojlanishi tufayli u ham rivojlanib bordi. Kiyimning keyingi ko’rinishi turli o’simlik va hayvonot mahsulotlaridan to’qilgan oddiy gazlamalarni tanaga o’rab yurishdan iborat edi. Qadimgi Gresiyada erkaklar kiyimi ikki qismidan – xiton va gimatiydan iborat bo’lgan. Xiton – bu ichki kiyim bo’lib, jun yoki zig’ir tolali gazlamadan tayyorlangan. Gazlamalar bo’y ipi bo’ylab ikkiga bukilib, yelkada ikkita to’g’nog’ich – fibula bilan mahkamlangan. Xiton bilan ko’chada yurish uyat hisoblangan.

Erkaklar biror yumush bilan ko’chaga chiqayotganda ustki kiyim – gimatiyni kiyib olishgan. Gimatiy to’g’ri to’rtburchak shakldagi, 1,7x4 m o’lchamdagagi gazlama bo’lagidan iborat bo’lib, uni yelka ustida bog’lab yoki yelkaga tashlab qo’yib, gavdaning tabiiy go’zalligi va harakat bemalolligini ko’rsatadigan hamda unga halaqit bermaydigan nafis taxlamalar tushirib drapirovska qilib qo’yilar edi.

Ayollar kiyimi ham erkaklar kiyimiga o’xshab ikki qismidan iborat bo’lib, ular kiyimi yopiqroq va uzunroq bo’lgan. Ichki kiyimi – xiton burmalangan gazlama bo’lagi yelkada fibulalar (to’g’nog’ichlar) bilan mahkamlangan. Xiton oq, sariq, qizil rangdagi jun va zig’ir tolali gazlamalardan tayyorlangan. Xiton uy kiyimi hisoblanib, unda ko’chaga chiqish odatlanilmagan. Ayollar ustki kiyimi peplos deb atalardi. Uning shakli va drapirovska qilinishi xitonga o’xshab ketardi, faqat taxlamalari soni ko’proq va uzunroq edi. Peplos 1,5x3,5 m o’lchamdagagi gazlama bo’lagidan iborat bo’lgan.

O’zbekcha kiyimning ko’p asrli boy tarixi bor. Unda xalqimizning o’tmishi, iqlim sharoitimiz, turmush tarzimiz ko’zguda aks etgandek ifoda topgan. A.Makedonskiy yurishlari, mo’g’ullar bosqinchiligi, Temuriylar yurishlari va xukmronligi, nihoyat, mustabidlik davri – bularning hammasi kiyimda o’z aksini topdi.

# INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

Antik dunyo davrida (miloddan avvalgi IV asrdan milodning IV asrigacha) ayollar ko'ylagi yunoncha xitonga o'xhash, lekin o'ziga xos xususiyatlari bo'lar edi: old va ort bo'laklar etagining yon burchaklari o'zaro biriktirilib, bu faqat antik sharq uchungina xos bo'lgan muayyan drapirovka ko'rinishi hosil bo'lib turardi. Ayollarga u paytlarda lozim kiyish odat edi. Bosh kiyim, sochni turmaklash shakllari har xil bo'lardi. Tillaqoshlar, shokilalar, jevaklar, bilakuzuklar taqilardi. Ilk o'rta asrlar davrida (V-VIII asrlar) ayollar gavdaga juda yopishib turadigan tunukasimon bichimli ko'ylak va faqat chap tomon qaytarmali, ko'ndalang taxlamalar ichiga kiritib qo'yiladigan uzun yenglari bor tunukasimon ust kiyimda yurishardi. Kiyimni yorqin gulli va sernaqsh shoyi gazlamalardan tikishar edi. Sochlarini silliq tarab, chekka qismini quloqlar ustidan ularga yopishtirib o'tkazib, soch o'rimiga qo'shib qo'yishar, zargarlik buyumlaridan juda xilma-xil taqinchoqlar taqishar edi. Ko'ylak yenglari keng va uzun bo'lib, ular barmoqlarni ham berkitib turgan. Markaziy Osiyoni Rossiyaga qo'shilishi natijasida ayollar ko'ylaklarida tik yoqalar urf bo'la boshladi. XIX asr oxirlarida ko'ylakda koketkalar paydo bo'ldi, ya'ni ko'krak burma ko'ylaklar kiyish odat tusiga kirdi va hozirgi kungacha bunday ko'ylaklar kiyiladi. 1920-yilda o'zbek ayollar kiyimi yangi zamonga, yangicha turmush tarziga, zamonaviy modaga muvofiq rivojlanishida davom etdi. Uzuna yaxlit, koketkali an'anaviy ko'ylak milliy mansublik simvoli bo'lgani uchungina emas, balki asosan xalq kiyimida iqlim xususiyatlariga, tevarak-atrofdagi tabiatga va turmush tarziga to'g'ri keladigan rasional shakllar, bichimlar bir necha asrlardan beri saralanib kelgani uchun saqlanib qoldi. Ayollar ko'ylagidagi yorqin ranglar mutanosibligi o'lkamiz tabiatiga monand tushgan bo'lib, shaklning bemalol tushib turishi jazirama quruq iqlim sharoitiga mos keladi (bunda kiyim tagi qatlamidagi havoning ventilyasiysi yaxshi). Moda «shabbodasi» ayollarning an'anaviy ko'ylagiga hech ayamay zamona o'zgarishlarini kiritib boradi. Koketkalarning uzunligi va shakli (oval, to'g'ri to'rtburchak, burchak), ko'ylakdagi uzunlik, shakl (to'g'ri to'rtburchak, trapesiyasimon) va shakl hosil qilish prinsiplari (burmalar, taxlamalar, plisse, gofre, qiya bichiq, quyosh, qiyiq bo'laklar), yeng uzunligi, shakli va bichimi (o'tqazma, reglan, yaxlit bichilgan) o'zgarib bormoqda; yoqa turlarining (inglizcha klassik, sholsimon, tik, qaytarma, yaxlit bichilgan va hokazo) va yoqa o'mizining («u» - simon, oval, kare, «qayiqcha» va boshqalar) nihoyatda ko'p xilma-xilligi ko'zga tashlanadi. Ishlatiladigan dekorativ bezak turlari ham turli-tuman: kashta, qo'yma burma, kant va boshqalar.

Qiziqarli yangiliklardan biri – taxlama burma sifatida ko'ylak pastki tomonining yuqori qirqimini ozroq-ozroq terib qo'yilishi. Ishlatiladigan materiallar turi, ulardag'i rang boyligi va naqshlar yechimi butunlay moda yo'naliishiga qarab hal qilinadi. Lekin an'anaviy xonatlas hamisha bir xilda mashhur bo'lib keladi. Uning naqsh motivi ham zamon, voqelik, davr ta'sirida o'zgarib turadi. Xonatlasdan tikilgan ko'ylaklar ustida olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, undagi rapportning kattaligi, rasmlarining aniq-ravshanligi va qat'iyligi bu kiyimni ko'p bo'laklardan tikishga imkon bermaydi, uning shakli aniq, to'g'ri to'rtburchakka yaqin bo'lishi kerak. Rang tuslarining turlari va naqshgul yechimlari boy bo'lgani sababli ko'ylak kompozisiyasiga bezak tariqasida boshqa materiallar, kashta gullar (hatto lyureks-yaltiroq qoplamlari ingichka iplar) aralashtirish tavsiya etilmaydi.

Xonatlas ko'ylaklarni modellashga material rasmidan qiziqarli qilib foydalanish, detallarning shakli aniqligi mutanosibligi va yoqanining xilma-xilligi hisobiga erishiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Хонбобоев, Х. О., Икромова, М. Х., & Икромов, М. А. Х. (2016). Ta'limda axborot texnologiyalarni qollashning oziga xos xususiyatlari. Молодой учёный, (3-1), 21-22.
- MUBINAKHON, I., & ANASKHON, I. M. The Importance of Using the Ict to Increase the Efficiency of Education. JournalNX, 7(1), 106-108.

# INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

3. Ikramova, M. (2022). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF USING MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND METHODS IN TRAINING FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGY. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, 3(9), 1-4.
4. Isaqova, Z., M. Ikramova, and M. Abdusamatova. "TO EDUCATE STUDENTS TO BE SMART, POLITE, WELL-MANNERED, INTELLIGENT AND PHYSICALLY HEALTHY IN THE PROCESS OF LABOR EDUCATION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 9.12 (2021): 868-870.
5. Ikramova, M. Kh. "USE OF DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES IN" TECHNOLOGY" CLASSES." Open Access Repository 8.11 (2022): 116-120.
6. Ikramova, M. Kh. "PECULIARITIES OF USING DIGITIZED EDUCATIONAL RESOURCES IN" TECHNOLOGY" CLASSES." Open Access Repository 9.11 (2022): 208-212.
7. Alimov, B., Isaqova, Z., Ikramova, M. X., & Bo'teyev, A. (2022). DIDACTIC SHAPT-SHAPOITLAPI OF PIVOJLANTIP OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE FUTURE TEACHER OF THE SCIENCE OF" TECHNOLOGY". Open Access Repository, 9(11), 328-333.
8. Gulyamov, K. M., and M. H. Ikramov. "Development of artistic and creative abilities of future teachers of fine arts through computer graphics." *JournalNX* 7.06 (2021): 95-99.
9. Xakimjonog, Ikromov Muhammad Anasxon. "BO 'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O 'QITUVCHILARIGA "MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI" FANINI O 'QITISH JARAYONIDA ULARNING BADIY-IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI." Conferencea (2023): 34-38.